

**BUXORODA JADIDCHILIK HARAKATI OZODLIK VA
MUSTAQILLIK G‘OYALARINI O‘ZIDA MUJASSAMLASHTIRGAN
MUHIM VOQEALARDAN BIRI.**

Sobirov Ulug‘bek G‘ofurovich

Buxoro davlat pedagogika instituti

Pedagogik ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada buxoroda o‘tgan asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati ozodlik va mustaqillik g‘oyalarini o‘zida mujassamlashtirgan va o‘zbek xalqi tarixida o‘chmas iz qoldirgan muhim voqealardan biri hisoblanadigan buxoro jadidchilik harakatining paydo bo‘lishi va ushbu harakat faoliyati haqida qisqacha to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: uchinchi renessana, yosh buxorolik, ilmsevar, jadid, quvg‘in, buxoro amrligi, qizil armiya.

**ДЖАДИДИСТСКОЕ ДВИЖЕНИЕ В БУХАРЕ ЯВЛЯЕТСЯ ОДНИМ
ИЗ ВАЖНЕЙШИХ СОБЫТИЙ, ВОПЛОЩАЮЩИХ ИДЕИ СВОБОДЫ И
НЕЗАВИСИМОСТИ.**

Собиров Улугбек Гофурович

Бухарский государственный педагогический институт

Преподаватель кафедры педагогического образования

Аннотация: в данной статье кратко описывается возникновение движения бухарского джадидизма, воплотившего в себе идеи свободы и независимости и

оставившего неизгладимый след в истории узбекского народа, и деятельность этого движения, возникшего в Бухаре в начале прошлого века.

Ключевые слова: третий ренессанс, молодые бухарцы, ученый, джадид, гонения, бухарское правление, Красная армия.

THE JADIDIST MOVEMENT IN BUKHARA IS ONE OF THE MOST IMPORTANT EVENTS EMBODYING THE IDEAS OF FREEDOM AND INDEPENDENCE.

Sobirov Ulugbek Gofurovich

Bukhara State Pedagogical Institute

Teacher of the Department of Pedagogical Education

Abstract: in this article, the emergence of the Bukhara Jadidism movement, which embodied the ideas of freedom and independence and left an indelible mark in the history of the Uzbek people, and the activities of this movement, which arose in Bukhara at the beginning of the last century, are described in this article. is briefly discussed.

Key words: the third renaissance, young Bukhara people, scientist, Jadid, persecution, Bukhara rule, Red Army.

Bugungi kunda tez-tez qulog'imizga chalinib turgan Uchinchi Renessans so'zlari hech birimizga sir emaski birinchi bor O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mustaqilligimizning 29 yilligi arafasida so'zlagan nutqida yangragan edi. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga murojaatnomasida "Umuman biz jadidchilk harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz me'rosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qanchalik ko'p chuqur o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha ko'p targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz

bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”¹-degan fikrlarni ilgari surib jadidlarimiz faoliyatini, hayoti va ilmiy me’rosini chuqurroq o’rganib yosh avlodga yetkazib berishimiz kerakligini ta’kidlaganlar.

Buxoroda o’tgan asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati ozodlik va mustaqillik g’oyalarini o’zida mujassamlashtirgan va o’zbek xalqi tarixida o’chmas iz qoldirgan muhim voqealardan biri hisoblanadi. Uning kurash tarixini o’rganish alohida a’hamiyat kasb etadi. Keng ilmiy jamoatchilik e’tiborini o’ziga jalb etib kelayotgan Turkiston Muxtoriyati tarixi bilan bir qatorda Buxoro hamda Xorazm jadidchiligi tarixini o’rganish ham hozirda nafaqat ilmiy, balki amaliy va hatto siyosiy nuqtai-nazardan qiziqish uyg’otishi tabiiydir. Hayot o’sha davr voqealariga qayta nazar tashlash, ya’ni xolisona, haqqoniy baho berishni taqozo etmoqda.

Shuni qayd etish lozimki, Buxoro amirligida jadidlarning mustaqillik uchun olib borgan kurashlari jarayonida demokratik milliy davlatchilikni barpo etish mafkurasi ham shakllana bordi.

Buxoro xalqining boy ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, madaniy taraqqiyotida XIX birinchi choragidagi davr o’zining nihoyatda sermazmun va inqilobiy suronliligi, g’oyaviy-nazariy va mafkuraviy harakat shakllarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu holat ijtimoiy taraqqiyotning o’ziga xos yo’nalishi edi. Ma’lumki, Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinib, mustamlakaga aylantirilgan edi.

Jadidchilikning asosiy g’oya va maqsadlari Buxoroni o’rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotdan ozod qilish, “Usuli qadim”ni inkor etgan holda o’lkani, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo’liga olib chiqish, milliy davlat qurish, konstitutsion, parlament va prezident idora usulidagi ozod, obod va farovon jamiyat tuzish, o’zbek tiliga davlat tili maqomini berish, milliy pul birligi, milliy armiya, qo’shin tuzish, rus va boshqa o’lka taraqqiyparvarlari, ma’rifatparvarlari g’oyalarini targ’ib va tashviq qilish uchun imkoniyatlar yaratish edi. Binobarin, Buxoroda jadidchilik harakatining

¹ Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga murojaatnomasidan
WWW.HUMOSCIENCE.COM

vujudga kelishi asta-sekinlik rivojlanib, milliy ozodlik mafkurasiga asoslanib bordi. Bu jarayon Buxorodagi mahalliy aholining ongiga o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Natijada aholi Buxoroda mustaqillik, milliy taraqqiyot uchun, xalqning manfaatlari uchun kurash olib borishga ozodlik, mustaqillik uchun zamin tayyorlashga muvaffaq bo'ldilar. Aholi o'rtasida mustamlakachilikka qarshi ma'rifatparvalik g'oyalari tarqata boshladilar. Yangi ta'lim-tarbiya o'choqlarini – maktab, maorif, madaniy targ'ibot ishlarini boshlab yubordilar. Mana shunday sharoitda Buxoroda ko'plab davlat arboblari, taniqli ma'rifatparvar ziyolilar yetishib chiqdilar.

Buxoro amirligida jadidchilik harakati uch yo'nalish orqali faoliyat olib bordi:

- maorif – yangi usul maktablarini ochish, ta'lim metodlarini yangilash;
- san'at – badiiy adabiyot, teatr;
- matbuot (gazeta va jurnallar);

Jadidlarning asosiy maqsadi mamlakatni, aholini, millatni ilm ma'rifatli qilish bo'lsa, ikkinchi tomondan uning axloqiy darajasini yuksaltirish bilan bir qatorda millatning o'zligini anglashi, ulug'lashi, qadrlashi, birovga qaram bo'lmasligi, xullas ozod shaxsni voyaga yetakazish edi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga nazar tashlar ekanmiz, ma'rifatparvarchilik mafkurasi demoratik va milliy vatanparvarlik harakatarining g'oyaviy mazmunini tashkil etganligini ko'ramiz. Mamlakatimizda ma'rifatparvarlik g'oyasining kelib chiqishiga asosiy sabab, birinchidan, rus istilochilik siyosatining chuqurlashib borishi natijasida paydo bo'lgan milliy ozodlik harakatlari, ikkinchidan, g'arbdan kirib kelayotgan demokratik harakatlarning istilochilar tomonidan bo'g'ib qo'yilishi, uchinchidan, millatparvarfidoyi odamlarning qattiq ta'qib ostiga olinganligi va hatto ularning qatl etila boshlanganligi edi.

Jadidchilik harakati vakillari o'zlarining ma'rifatparvarlik mafkurasiga bir tomondan o'sha davr uchun dolzarb bo'lgan demokratik g'oyalarni – ilm o'rganish, fan va texnika yutuqlaridan bahramand bo'lish, ilmiy-tabiiy fanlarni rivojantirish, so'z

va fikr erkinligini joriy qilish, demokratik davlat qurilishiga asoslangan milliy davlatchilikni vujudga keltirish, milliy g'oyalar qatlamini shakllantirish, adabiyot, san'at va teatrning zamonaviy janrlarini rivojlantirish, ikkinchi tomondan mustamlakachilik siyosati ta'siri ostida o'z milliy siyosatini yoqotayotgan fikriy til va milliy qadriyatlarni tiklash, milliy, ma'naviy-axloqiy jihatlarini yanada kuchaytirish, milliy o'zligini anglash, milliy ong, milliy tafakkurni va diniy e'tiqodni mustahkamlash kabi g'oyalarni asos qilib olgan edilar. Albatta bu vazifalarni amalga oshirishda an'anaviy Islom dini, shariat asoslari va xadislari ham o'z ta'sir kuchlarini saqlab turgan ta'limotga suyanadilar.

Jadidlar o'zlarining ilg'or g'oyalarini xalq o'rtasida tarqatish uchun milliy matbaachilikni rivojlantirish orqali, zamoaviy ta'lim tizimini joriy etish, ilg'or g'arb (masalan, Germaniya) mamlakatlariga mahalliy yoshlarni o'qishga jo'natish yo'li bilan amalga oshirishga harakat qildilar.

Buxoroda jadidchilik hamda demokratik harakat tarixini o'rganishda juda murakkab, og'ir va muhim yo'lni bosib o'tdi.

Buxorodagi demokratik harakatning shakllanish tarixini o'rganishda F.Xo'jaevning jadidchilik harakati tarixiga oid "Buxoro inqilobining tarixiga oid materiallar" asari e'tiborga loyiq.

O'tgan asrning 30-yillarida sobiq SSSRda boshlangan qatag'on oqibatida jadidchilik harakati qatnashchilarining ko'pchiligi nohaq ravishda "xalq dushmani" sifatida qoralandi. F.Xo'jaev, A.Fitrat, S.Ayniy, A.Muhitdinov va boshqa ko'plab mashhur jadidlar asarlaridan foydalanish ta'qiqlandi. Negaki, ular kommunistik targ'ibot maqsadlariga zid edi. Shuning uchun ham tarixni, haqiqatni soxtalashtirishga zo'r berildi.

Jadidchilik g'oyalarining paydo bo'lishiga doir va yosh buxoroliklar harakati mafkurasi o'rganilgan qator ilmiy-tadqiqotlarda ham bu demokratik harakat mafkurasiga bolshevistik g'oyalar nuqtai-nazaridan baho berish ustuvorlik qila bordi. Ilmiy izlanishlar metodologiyasi asosan o'zini dunyoga daho deb hisoblagan

markscha-lenincha ta'limot mafkurasiga tayanar edi. Natijada, ilmiy muomalaga ko'plab manbalar, faktik materiallar kiritilganligiga qaramasdan, tarixiy jarayonlar butun ziddiyati va murakkabligi bilan baholanmay, haqqoniy bilimlar o'rniga ahvolni to'g'ri aks ettirmaydigan soxta tarixiy manzaralar yaratildi.

Buxoroda sho'rolar hokimiyati o'rnatilishi hamda ijtimoiy-siyosiy harakatlarni o'rganishga, shuningdek jadidchilikni tadqiq etishga bag'ishlab, o'tgan asrning 80-yillari oxirlarigacha yaratilgan deyarli barcha ilmiy tadqiqotlarda Buxorodagi jadidchilik harakatining tashkilotchilariga "panislomchi", "panturkchi", "burjua millatchilari", "aksilinqilobchi" kabi yorliqlar yopishtirilgan edi.

So'nggi yillardagi adabiyotlarni izchillik bilan o'rganish shuni ko'rsatdiki, XX asrning 80-90 yillari davomida partiya mafkuraviy zug'umining birmuncha kuchsizlanishi va SSSR ning parchalanishi bilan tarix fanida sog'lomlashish jarayoni namoyon bo'la boshladi. Shuningdek, 1985 yilning o'rtalarida davlat arxivlarida maxfiy saqlangan hujjatlar bilan keng jamoatchilikni tanishtirish imkoniyati ham yaratildi. Bular tarixiy voqealarga sinfiy yondashuvdan qochish, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligiga suyanishga intilish kabilarda ko'rinadi. O'z-o'zidan ma'lumki, o'zbek xalqining ozodlik va mustaqillik uchun kurashi manbalariga e'tibor keskin kuchaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, Buxoro Xalq Sho'rolar Respublikasi tarixi masalalari ustida ish olib borgan olimlarning ba'zi maqolalari va yirik ilmiy-tadqiqotlarining alohida qismlarini hisobga olmaganda, 1908-1920 yillarda Buxoro amirligidagi jadidchilik harakati yetarli darajada o'rganilmadi. Buxoro amirligi hududida jadidchilik harakatining shakllanishi va rivojlanishi sho'ro tarixshunosligi tomonidan o'sha davr mafkurasi talablariga mos ravishda yoritilib kelinganligi tufayli, bolsheviklar tomonidan Buxoroga uyushtirilgan bosqinning asl mohiyati ochilmagan. Bunday muammolarning yechilishi Sovet Rossiyasining bolshevistik rahbariyati tomonidan Buxoro va Xivaga o'xshagan taraqqiyotdan orqada qolgan mamlakatlarda "Xalq sovet inqilobi uyushtirib, ularni zo'ravonlik bilan sho'rolashtirish, sotsializmni

tayoq zarbi bilan kiritishga uringanligini to‘la ochib berish imkonini yaratadi”². Mustaqillik davrida esa tarixiy haqiqat tiklanib, olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi masalalarga ilmiy oydinlik kiritildi:

- Buxoroda demokratik, islohotchilik g‘oyalarini shakllantirishga shart-sharoit yaratgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy omillar;

- Jadidchilik evolyusiyasi, uning yangi xususiyatlari va Turkiston Muxtoriyati bilan o‘zaro yaqin aloqasi;

- Jadidchilik harakati namoyandalari faoliyatining dasturiy, tashkiliy asoslari va ularning konseptual qarashlari.

Xulosa qilib aytganda mazkur tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Buxoro amirligida jadidchilikning vujudga kelishi, bu harakatning maqsad va vazifalari hamda faoliyatining ayrim jihatlarini yoritib beruvchi izlanishlar olib borilgan. Biroq Buxoro jadidlarining ilm-ma‘rifat taraqqiyoti va ta‘lim-tarbiya sohasidagi islohotlari, qilgan jonkuyarliklari, davlatning ta‘lim siyosatidagi Buxoro jadidlarining roli bo‘yicha maxsus ilmiy tadqiqot yaratilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga murojaatnomasi
2. A‘zamxo‘jaev S.S. Turkiston muxtoriyati jadidchilik milliy-demokratik davlatchilik g‘oyalarining amaldagi ifodasi.-T.: “ma‘naviyat”, 1999 yil.
3. “Abdurauf Fitrat va jadid adabiyoti (XX asrning 20 yillariga qadar)” Rahimova Gulshan Muhiddin qizi.-1999y.
4. “Buxoro jadidlari”- Nusratillo Naimov- - Toshkent, “Fan” nashr-2000yil.
5. “Buxoro amirligida jadidlar va qadimchilar faoliyati (XIX asr oxiri- XX asr boshlari)” -Jamolova Dilnoza - tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi;- Tosh.2019-yil

² Косимов Ф.Х. Бухоро Республикаси тарихшунослиги. Бухоро. 1996. 60-б.
WWW.HUMOSCIENCE.COM

6. “Buxoro jadidlari merosi- bebaho boylik”- Sulaymon Inoyatov - Buxoronoma gazetasi 2020-yil 19-fevral 19-son.
7. Gofurovich, S. U. (2024). The System of Education in Schools Was Established by Jadids in Bukhara in 1908-1912. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education* (2994-9521), 2(6), 547-549.
8. https://www.researchgate.net/publication/380792695_BUXORO_JADID_LARI_VA_ULARNING_ILM-MA'RIFAT_TARAQQIYOTIDAGI_O'RNI